

MAXTUMQULI IJODIDA TASAVVUF

Madrimova Yorqinoy Jumamurot qizi,
Nukus davlat pedagogika instituti, O'zbek
adabiyoti kafedrasini fan kabinet mudiri,
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri

Annotatsiya. *Maxtumquli ijodi ko'plab chashmalardan suv ichgan: ular - Quro'ni karim va unga yozilgan tafsirlar. Hadisi sharif va diniy adabiyotlar, orif oshiq falsafasi va adabiyoti, Sharq mumtoz so'z san'ati va xalq og'zaki ijodi. Shuning uchun shoir ijodida islomiy mavzularni ham, so'fiyona ruhni ham, xalqona ohanglarni ham, mumtoz adabiyot ta'sirini ham ko'ramiz ular o'zaro omuxta bo'lib, Maxtumquli asarlarining yuksak badiiyati, ta'sirchanligi va umrboqiyiligini ta'minlagan.*

Kalit so'zlar: *orif oshiq, hamdu sano, madh, tafsir, sufiyona ruh, xikmat, ishorat, bashorat, oyat, bayt, gazal.*

Аннотация. *Произведение Махтумкули впитало воду из многих источников: это Священный Коран и написанные к нему комментарии. Хадис Шариф и религиозная литература, философия и литература Арифа Ашика, восточное классическое искусство речи и народное устное творчество. Именно поэтому творчество поэта включает в себя как исламскую тематику, так и суфийский дух. мы видим мелодии и влияние классической литературы, они взаимны и обеспечил высокую художественность, выразительность и долговечность произведений Махтумкули.*

Ключевые слова: *ариф любовь, восхваление, восхваление, толкование, мистический дух, мудрость, намек, предсказание, аят, аят, газель.*

Annotation. *Makhtumquli's work drank water from many springs: they are the Holy Qur'an and the commentaries written on it. Hadith Sharif and religious literature, philosophy and literature of Arif Ashiq, Eastern classical art of speech and folk oral creativity. That is why the poet's work includes both Islamic themes and the Sufi spirit we can see the melodies and the influence of classical literature, they are mutual and ensured the high artistry, impressiveness and longevity of Makhtumquli's works.*

Key words: *arif love, praise, praise, interpretation, mystical spirit, wisdom, hint, prediction, verse, verse, ghazal.*

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning Oliy majlisga yo'llagan Murojaatnomasida ham ayni masalaga alohida to'xtalib: "...bugungi kunda yoshlar ma'naviyati, ularning bilim va iqtidori, zakovati, talantini ro'yobga chiqarish uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar qilamiz", deya ta'kidlagan da'vatlar, bugungi ta'lim-tarbiya bo'g'inida faoliyat ko'rsatayotgan barcha barchaga dasturul amal xizmat qilishi hamda bu masalaning kechiktirib bo'lmas vazifalardan biri sifatida ta'kidlandi. "Maqtumquli Firog'iy XVIII asr ma'rifiy she'riyatining buyuk darg'alaridan bo'lib, butun turkiy xalqlar uchun tushunarli va sevimli shoir, ma'rifatli siymo, orif oshiq, sohibi hikmat bo'lgan valiy zotdir. Uning

insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan she'riyatida pok islomiy ma'rifat ruhi gurkirab, yashnab turadi.”¹

Ulug' turkman shoiri va mutafakkiri Maqtumquli 1733 yili Atrek daryosi bo'yidagi Xojig'ovshan ovulida tug'ilgan. Uning ilk ustози Ozodiy taxallusi bilan she'rlar yozgan otasi Davlatmamad edi. Oilada xatsavodini chiqargan bo'lajak shoir taxminan olti yoshidan ovul maktabida Niyozsolih mulla qo'lida o'qiy boshlaydi. O'tkir zexni va tirishkokligi bilan ukuvchilar orasida aloxida ajralib turgan Maxtumquli keyin Qiziloyoq (hozirgi Chorjuy viloyati, Xalach tumani) dagi Idris bobo madrasasida tahsilini davom ettiradi. Sho'ng Xivaning Sherg'ozixon madrasasida ilmini kamolga yetkazadi. Shuningdek bir muddat Buxorodagi Ko'kaldosh madrasasida ham uqigani hakida rivoyatlar mavjud. Xivadagi eng nufuzli o'quv dargohi sanalmish «Sherg'ozixon» madrasasida Maxtumquli uch yil o'qib, muhim ilmlarni o'zlashtirib, Qur'oni karimni xatm qiladi, o'zi aytganidek, dili ochiladi, oq-qorani, haq-nohaqni, do'st-dushmanni ajratadigan bo'ladi. Yosh olim madrasa bilan xayrlashuv she'rida shukrona tuyg'ularini bunday ifoda etadi:

Haqdan bizga buyruq – farz erur bilim,
Senda ta'lim oldim, ochildi dilim,
Kelsin deya kutar ul Karkaz elim,
Ketar bo'ldim, xush qol, go'zal «Sherg'ozixon»
Ajratarman endi oqu qaroni,
Do'st-raqib, qardoshim, Haqni, yoronni,
O'qidim, ko'tardim Kitob – Qur'onni,

“Maxtumqulining ilohiyot mavzuidagi she'rlari, jumladan, ilohiy ishq va islomiy ma'rifat tarannum etilgan asarlari mustamlaka davrida xaspo'shlandi yoki ularning mohiyati buzib talqin etildi. Bu kungi istiqloq kunlarida biz ko'plab mumtoz adiblar qatorida Maxtumqulining ham ilohiy ruhdagi she'rlarini sharhlash imkoniga ega bo'lib turibmiz. Shoirning ana shunday teran ma'rifiy ma'nodagi asarlaridan biri «chiqar» radifli g'azalidir.”² deb fikr bildirgan Mirzo Kenjabek. Adib o'z tarjimalrida Maxtumqulining ijodida diniy islomiy tushunchalar eng asosiy urinni egallashini misollar bilan dallillab beradi. Jumladan, Maxtumqulining ijodi Qur'oni karim, hadisi shariflarga, tasavvuf ta'limoti, valiylik hikmatiga hamda Alloh o'z huzuridan ato etgan ilmi laduniyga asoslangan. Uning siyosiy qarashlari ham sog'lom e'tiqod tamoyillariga tayangan bo'lib,

¹ Mirzo Kenjabek “Maxtumquli –valiy shoir” 3-bet

² Mirzo Kenjabek “Maxtumquli –valiy shoir” 11-bet

bu mo‘jaz bir ilmiy tadqiqotga asos bo‘ladigan mavzudir. Davr hukmdori – Ahmad shohga bag‘ishlangan she‘rida shoir: «Sen dinni rivojlantir. Shohlarningshohisan, islomning quvvatisan» degan fikrlarni ilgari suradi.

Maxtumquli she‘riyati – nurli she‘riyat. Uning ijodida dunyoviy va diniy ilmi-ma‘rifatdan xabar beruvchi savol -javob tarzidagi she‘rlar alohida mavqe‘ni ishg‘ol etadi, yuraklarni larzaga soladi. Adibning Turdi shoir bilan aytishuviga diqqat qilaylik:

Maxtumquli:

– Ul nimadur, yemadilar, to‘ydilar?
Ul nimadur, qiyomatga qo‘ydilar?
Ul kim edi, tovonidan so‘ydilar?
Shoir bo‘lsang, shundan bizga xabar ber!

Turdi shoir:

– Ul diydordur, yemadilar, to‘ydilar,
Ul namozdur, qiyomatga qo‘ydilar,
Nasimiyning tovonidan so‘ydilar,
Bizdan salom bo‘lsin, javob shundaydir...

Savol - javob she‘rlarida «tajohuli orifona» tarzida, ya‘ni bilib turib bilmaslikka olib, zamondoshining iste‘dodi va ilmi-ma‘rifatini sinash uchun savollar o‘rtaga qo‘yiladi. Bu so‘roqlarga javob berish uchun esa iste‘doddan tashqari, keng qamrov, nozik farosat, ulkan ilm-irfon ham bo‘lishi zarur.

Maxtumquli yuqoridagi she‘rida shoir «sayron ichinda» – sulukdagi sayr chog‘ida Payg‘ambarlar va aziz avliyolardan iborat nafar siymoni ko‘rganini bildiradi va: Turkiston egasi – Xoja Ahmad Yassaviy ham ular orasida borligini quyidagi sherida aytadi.

Turkiston egasi – sarvar,
Imom Qosim, Imom Ja‘far,
Yahyo bilan Nuh Payg‘ambar,
Boyazid Sulton ichinda

Haqdan farmon chiqib, qayta tirilish Qur‘onda bildirilgan ilohiy haqiqatdir, deydi shoir. Chunonchi, Qur‘oni karimda Haq taolo: «O‘lik yer ular uchun (qayta tirilishga) bir oyat alomatdir»³ («Yosin» surasi, -oyat) deydi, «Qiyomat» surasida esa: «Inson Bizni uning (chirib tuproqqa aylanib ketgan) suyaklarini hargiz to‘play olmas, deb gumon qilurmi?! Yo‘q, Biz uning barmoqlarini (ham) tiklab, joy-joyiga keltirishga qodir

³ Abdulaziz Mansur Quroni karim manolar tarjimasi

Zotdirmiz»4 (, -oyatlar) deb ogohlantiradi. Bu haqda oyatlar ko‘p. Maxtumquli ana shu oyatlarga ishora qilayotir.

Maxtumquli, sirim cho‘xdur,
Men nalayin, ochan yo‘qdur,
O‘lmoq haq, tirilmoq haqdur,
O‘qudim Qur’on ichinda...

“Maxtumquli ijodi ko‘plab chashmalardan suv ichgan: ular - Qur’oni karim va unga yozilgan tafsirlar. Hadisi sharif va diniy adabiyotlar, tasavvuf falsafasi va adabiyoti, Sharq mumtoz so‘z san’ati va xalq ogzaki ijodi. Shuning uchun shoir ijodida islomiy mavzularni ham, sufiyona ruhni xam, xalkona oxanglarni ham, mumtoz adabiyot ta’sirini ham ko‘ramiz — ular uzaro omuxta bulib, Maxtumquli asarlarining yuksak badiiyati, ta’sirchanligi va umrboqiyiligini ta’minlagan. Shoir she’rlarida payg‘ambarlar, avliyolar, sahobalar, tasavvuf pirlari, xalq qahramonlarining nomiga ko‘p duch kelamiz.” Xaqiqatdan ham Maxtumquli ijodini asosiy mavzu va goyasi tasvvufiy ilmlardan iborat. Maxtumquli ijodi dunyo va oxirat mohiyatini anglashda insonga madadkor, ma’naviy oziq, ruhga quvvat, iymonga dalda bo‘ladi. Uning ijodini yanada chukurrok o‘rganib ko‘prok targ‘ib etish maqsadga muvofikdir. Yeshlarni ma’naviy va marifiy kelajagi uchun asos bula oladi. Maxtumquli turkiy xalqlarning sayroqi tili, sahroning guli, gulning bulbuli, Haqning sodiq, oshiq va orif qulidir. Alloh muborak aylasin!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzo Kenjabek“ Maktumkuli –valiy shoir” 3-bet
2. Mirzo Kenjabek“ Maktumkuli –valiy shoir” 3-bet
3. Abdulaziz Mansur Quroni karim manolar tarjimasi
4. Abdulaziz Mansur Quroni karim manolar tarjimasi
5. Maxtumquli”Dunyo o‘tib boradur”sherlar 11-bet
6. <http://referatlar.uz> –Referatlar, testlar, kitoblar va media ta'lim sayti
7. <http://book.uz> – Elektron adabiyotlar kutubxonasi
8. <http://translate.google.co.uz> – Google –tarjimon sayti
9. <http://arxiv.uz> – Referatlar arxivi
10. <http://txt.uz> – Elektron kutubxona

⁴Abdulaziz Mansur Quroni karim manolar tarjimasi